

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI"
DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYANCH
KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

Nilufar Nematovna Xadjimusayeva

fil.f.b.fal doktori (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Fotima Botir qizi Normatova

magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, mavzuni tushuntirish orqali 2-sinf o'quvchilarida tarix, ajdodlar merosi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, so'z oxirida kelib, og'zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi bilan ishlash orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *В данной статье с использованием современных педагогических технологий на родном языке и занятиях по грамотному чтению учащиеся 2 класса развивают базовые компетенции по расширению своих представлений об истории и наследии предков путем объяснения темы, с правописанием согласных, стоящих на конце слово формирование научных компетенций через труд.*

Abstract: *In this article, using modern pedagogical technologies in mother tongue and reading literacy classes, 2nd grade students develop basic competencies to expand their understanding of history and ancestral heritage by explaining the topic, with the spelling of consonants that come at the end of a word. The formation of scientific competencies through work.*

Kalit so'zlar: *Tayanch kompetensiya, Samarqand, tarix, talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, davlatlar, shaharlar.*

Ключевые слова: *Базовая компетенция, Самарканд, история, согласные, страны, города.*

Keywords: *Basic competence, Samarkand, history, consonants, countries, cities.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday deydi: "O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik - umrning eng bebaho davri. Ilm o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko'rgan to'siq va qiyinchiliklarni ko'rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo'lida siz - yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman".

Ma'lumki, Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi¹.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi **tayanch kompetensiyalar** shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu jarayonni 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Samarqand – tarix beshigi" mavzusi asosida ko'rib chiqamiz:

Darsning mavzusi: Samarqand – tarix beshigi.

¹ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh., Hakimova N. Baxtiyorova H. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. 4-bet.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Matn mazmuni va g‘oyasini aniqlash, narsa nomlarini ajrata olish, yo‘riqnoma va ko‘rsatmalarni tushunish, so‘z oxirida kelib, og‘zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi bilan ishlash; **Og‘zaki nutq 1:** suhbat jarayonida ikkinchi sinf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so‘zlay oladi; **Tinglab tushunish 4:** sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach uning asosiy mazmunini, voqealar ketma-ketligi va g‘oyasini aytib bera oladi; **O‘qib tushunish 3:** sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o‘qiy oladi; **Yozma nutq 1:** asosiy husnixat qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi; **Lingvistik kompetensiya 11:** asosiy husnixat, imlo, bo‘g‘in ko‘chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga mos, o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi.

Tarbiyaviy: tarixiy meros va obidalarni asrab-avaylashga undash; **Og‘zaki nutq 2:** kichiklar, tengdoshlari hamda kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga (bir-birini hurmat qilish, so‘zga chiqishni istashini hurmat bilan so‘rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) rioya qiladi va fikrini bildiradi.


Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish; **Og‘zaki nutq 4:** suhbat yoki muhokama jarayonida ma’lumot yoki mulohazani aniqlashtirish uchun savollar bera oladi; **Tinglab tushunish 7:** sinf darajasidagi og‘zaki, media, reklama, badiiy hamda informativ matn haqida o‘z fikrini bildiradi va asoslab bera oladi.

Darsning metodi: tushuntirish, suhbat, “Bulutlarni tarqating” didaktik o‘yini, “Ajratamiz” didaktik o‘yini, Rasmi diktant.

Darsning borishi: O‘quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida “Bulutlarni tarqating” didaktik o‘yini o‘tkaziladi.

IPT**“Bulutlarni tarqating” didaktik o‘yini.**

O‘qituvchi doskaga quyosh rasmini iladi va uni “So‘zni topib ishlating” bo‘limiga oid savollar yozilgan bulutchalar bilan yopib qo‘yadi. Sinf jamoasi 3 guruhga bo‘linadi.



O‘quvchilarning qo‘llariga Tarbiya faniga oid savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ularga javob bera olgan o‘quvchi bulutni olib, unda yozilgan savolga javob beradi. Agar qo‘lidagi savolga javob bera olmasa, jamoasidan yordam olishi mumkin, ammo bulutdagi savolga o‘zi javob berishi lozim. O‘yin shu tariqa davom etib, hamma bulutlardagi savollarga javob berilgandan so‘ng quyosh porlaydi. Qaysi guruh to‘g‘ri va ko‘p savollarga javob bergan bo‘lsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi va rag‘batlantiriladi.

Yangi mavzu: Yangi mavzuni e‘lon qilishdan avval, o‘qituvchi doskaga bittadan misol yozilgan uchta varoqlarni iladi, o‘quvchilarga navbat bilan bajartiradi va birgalikda bajarilgan misollarni tekshiradi, xatosi bo‘lsa, to‘g‘rilaydi. Shundan so‘ng varoqlarning orqasini o‘giradi va bugungi mavzu nomi (**Samarqand - tarix beshigi**) kelib chiqadi.

O‘qituvchi mavzuni tushuntiradi:

Samarqand – dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. U o‘rta asrlarda “Yer yuzining sayqali” deya e‘tirof etilgan. Samarqandning qadimgi nomlaridan biri “Smarakansa” bo‘lib, “ulug‘ shahar” degan ma‘noni anglatgan. Turkiy tilda so‘zlovchi aholi esa uni “Semizkent” deb atagan.

Qadimda Samarqandni baland devor bilan o‘rab chiqishgan. O‘sha devorlar shaharni dushmanlar hujumidan himoya qilib turgan. Devor bilan o‘ralgan shaharlar qal‘a deyilgan. Uning 3ta darvozasi bo‘lgan. Samarqand qal‘asiga kirish va chiqish ana shu darvozalar orqali amalga oshirilgan.

Qal‘a mustahkam bo‘lsa ham, u juda ko‘p hujumlarga uchragan, **urushlarga guvoh bo‘lgan**. Bir necha bor **vayronaga** aylantirilgan. Ana o‘sha vayronalar ba‘zi manbalarda Afrosiyob deb ham ataladi.

Bundan 650 yil oldin Amir Temur bobomiz Samarqand shahrini o‘z davlatining poytaxti deb e‘lon qilgan. Shahar yana devorlar bilan o‘rab olingan. O‘shanda shaharga kirib-chiqish uchun 6ta darvoza qurilgan. Temuriylar davrida Samarqand shahri juda go‘zallashib ketdi. Registon maydoni ham ayni shu davrlarda qurilgan. Bu maydonda hozir “Sharq taronalari” xalqaro festivali o‘tkaziladi.

1925-yildan 1930-yilgacha Samarqand davlatimiz poytaxti edi. Olimlarning aniqlashicha, Samarqandning yoshi 2700dan oshgan ekan. Samarqand albatta borish kerak bo‘lgan 50 shaharning biri hisoblanadi².

O‘qituvchi Samarqand haqida ma‘lumotlarni o‘quvchilarga chiroyli nutqi orqali yetkazgandan so‘ng **suhbat metodidan** foydalanib, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

1. Samarqand shahri haqida nimalarni bilasiz?

2.

“

Qadimgi” deganda nimani tushunasiz? “Qadimgi shahar” deganda-chi?

3. Samarqand haqida nimalarni bilib oldingiz?

² Bolalar ensiklopediyasi 3-nashri -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 446-bet.



“Ajratamiz” o‘yini.

O‘yin qoidalari:

- ✓ Har bir qatordan 5tadan o‘quvchi tanlab olinadi.
- ✓ O‘qituvchi doskaga quyidagi so‘zlarni yozadi: Samarqand, Buxoro, Toshkent, O‘zbekiston, Farg‘ona, London, Nyu-York, Qozog‘iston, Bishkek, Piskent, Turkmaniston, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Parij, Berlin, Polsha, Dehli, Hindiston, Mumbay, Parkent.
- ✓ Tanlab olingan 5 tadan o‘quvchi navbat bilan chiqib shu so‘zlarni quyidagi jadvalga joylaydilar:

DAVLATLAR	SHAHARLAR

Darslikning 56-betida berilgan ko‘rsatmalar asosida “Ajratamiz” o‘yini tashkillashtiriladi. O‘quvchilar o‘yin shartlarini o‘qib chiqadilar hamda o‘qituvchi qayta tushuntirib o‘tadi. Shundan keyin o‘yinni o‘ynash boshlanadi.

IPT

Savol-javob

“Davlatlar” deb nomlangan ustunga yozilgan so‘zlarga e‘tibor qarating. Ularda qanday o‘xshashlikni ko‘ryapsiz?

Ushbu savol davlat nomlari -iston va -iya qo‘shimchalari bilan tugashiga o‘quvchilarning diqqatini qaratish maqsadida berilgan.

O‘quvchilar to‘g‘ri javobga yetib kela olmasalar, o‘qituvchining o‘zi buni tushuntirib beradi. Nega davlat nomlari shu shaklda tugashini u yerda shu millat vakillari yashashi bilan bog‘lab tushuntiradi.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida “Rasmi diktant” o‘tkaziladi.

IPT

“Rasmi diktant”

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. Mashq daftarida g‘isht, musht, daraxt, poyezd, go‘sht, past-baland so‘zlariga oid rasmlar berilgan. O‘quvchilar shu so‘zlarni yozib berishlari kerak. Ushbu topshiriqning maqsadi – so‘zlar oxiridagi tovushlar ba‘zan aytilmasa ham, yozilishini anglatish. Mashq tugatilgach, so‘z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida nazariy ma‘lumot yetkaziladi.

O‘quvchilar ushbu qoidani yod olishlari kerak emas. Umuman olganda, bu qoida ham emas, shunchaki bilim beruvchi ma‘lumot sifatida qaralishi lozim⁴.

³ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh. 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi(2-qism) T.: **Respublika ta’lim markazi**, 2021. 56-bet.

⁴ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh., Hakimova N. Baxtiyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. 104-bet.



*Ba‘zan ayrim so‘zlarning oxirgi tovu-
shi aytilmasa ham, yoziladi:
Samarqand, baland, musht.*



Bu dars orqali o‘quvchilarning Samarqand haqidagi bilimlari yanada oshadi va so‘z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu dars jarayonida turli xil interfaol metodlardan foydalanildi, jumladan, **“Bulutlarni tarqating” didaktik o‘yini** orqali o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlab olindi. Ushbu metodga e‘tibor qaratsak, u tarbiya fani bilan ham integratsiyaga kirishgan, bu esa o‘quvchilarning nafaqat ona tili va o‘qish savodxonligi fani, balki tarbiya faniga oid bilimlarini ham tekshirishga imkon beradi. **“Ajrataimiz” didaktik o‘yini** orqali o‘quvchilarning davlatlar va shaharlarga oid bilimlari kengaytiriladi. **“Rasmi diktant” metodi** orqali o‘quvchilar so‘z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida nazariy ma‘lumotga ega bo‘lishadi. Bundan tashqari **“Hikoya”, “Suhbat” metodidan** ham foydalanilgan. Yuqoridagi metodlarni dars mashg‘ulotlarida qo‘llash orqali ona tili va o‘qish savodxonligi fanining samaradorligi oshadi va o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

FOYADLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - “O‘zbekiston”-2016. 56 b
2. Bolalar ensiklopediyasi 3-nashri -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -664b.
3. X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, G.Mamatova, H.Boqiyeva. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi - T.: TDPU, 2009-70-bet
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh. 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi(1-2-qismlar) T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021. - 240 b.
5. Azimova I. va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma - Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. - 128 b.
6. Davlat ta‘lim standarti. T. “O‘qituvchi”. 2017